

**TALABALARDA NAFOSAT TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA
PORTRET JANRINING O'RNI VA AHAMIYATI.****Azizbek Odiljonovich Maxmudov***Andijon davlat pedagogika instituti Tasviriy san'at
va musiqa ta'limi kafedrası o'qituvchisi, e-mail: Azizbek177@mail.ru***To'lanboyeva Layloxon Iqboljon qizi***Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya. *Portret janrida rangtasvir va kompozitsiya masalalarini o'rgatishda nafosat tarbiyasi, talabalarga san'atning nozik jihatlarini tushuntirish va ularni professional ishlarida amaliy ravishda qo'llashni o'rgatish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Rang va kompozitsiya yordamida insonning ichki dunyosini va tashqi ko'rinishini tasvirlashni o'rgatishga qaratilgan bo'lib, talabalarda nafaqat texnik mahoratni, balki estetik sezgirlikni ham rivojlantiradi. Portretning nafis kompozitsiyasi va rang-tus munosabatlarining to'g'ri tanlanishi, tasvirdagi obrazning chuqur ma'nosini ochib beradi va tomoshabinning hissiy munosabatini shakllantiradi. Nafosat tarbiyasi esa, talabalarga san'atni yuqori badiiy sifatlarda bajarish, tasvirning har bir detali bilan ishlash va umumiy tasavvurni o'zgacha uslubda ifodalash imkoniyatini beradi. Bunday o'quv jarayoni, talabalarining vizual madaniyatini yuksaltirib, san'atga bo'lgan chuqur e'tibor va tushunishni shakllantiradi.*

Kalit so'zlar: *Portret, rassom, me'zon, mashq, vazifa, kompozitsiya, akademik, chiziq, eskiz, ranglavha, rangtasvir, ko'z, qosh, burun, og'iz, yonoq, iyak, peshona, soch, qiyofachi, plastik, gavda, konstruktiv, nyuans, tarx, asar, geometrik.*

Аннотация. *Воспитание утонченности в преподавании вопросов живописи и композиции в портретном жанре приобретает важное значение в процессе обучения студентов объяснению тонкостей искусства и практическому применению их в своей профессиональной работе. Он направлен на то, чтобы научить изображать внутренний мир и внешний вид человека с помощью цвета и композиции, развивая у учащихся не только технические навыки, но и эстетическую чувствительность. Изящная композиция портрета и правильный подбор цвето-цветовых отношений раскрывают в изображении глубокий смысл образа и формируют эмоциональный отклик зрителя. С другой стороны, воспитание утонченности дает учащимся возможность выполнять искусство с высоким художественным качеством, работать с каждой деталью изображения и выражать общую фантазию в уникальном стиле. Такой учебный процесс формирует глубокое внимание и понимание искусства, повышая визуальную культуру учащихся.*

Ключевые слова: *портрет, художник, критерий, упражнение, задание, композиция, академический, линия, эскиз, колористика, живопись, глаз, бровь, нос,*

рот, щека, подбородок, лоб, волосы, фигура, пластика, туловище, конструктив, нюанс, история, работа, геометрический.

Annotation. *In teaching painting and composition issues in the portrait genre, sophistication is instrumental in the process of teaching students to explain the subtleties of art and apply them practically in their professional work. Aimed at teaching the description of the inner world and appearance of a person with the help of color and composition, it develops in students not only technical skill, but also aesthetic sensitivity. The elegant composition of the portrait and the correct choice of color-tone relationships reveal the deep meaning of the image in the image and form the emotional attitude of the viewer. Elegance education, on the other hand, gives students the opportunity to do art in high artistic qualities, work with every detail of the image and express the overall imagination in a different style. Such an educational process, elevating the visual culture of students, forms a deep focus and understanding of art.*

Keywords: *portrait, artist, mezzon, exercise, task, composition, academic, line, sketch, coloring, painting, eye, eyebrow, nose, mouth, cheek, chin, forehead, hair, face, plastic, torso, constructive, nyuans, tarx, masterpiece, geometric.*

Ma'lumki, odam qiyofasini ishlash tasviriy san'at sohasining eng murakkab qismidir. Bu vazifani uddalash juda ko'p nazariy va amaliy ishlarni jo'yali, qonun-qoidali qilib ado etishni talab etadi. Portretga, ayniqsa ijodiy portretga odam boshi tasvirini yaxshi tasvirlashni o'rganib olingach, kirishiladi. Chunki portretga odamning nafaqat boshi, yuz qismi, balki uning bo'yni, gavdasi, ba'zida esa butun gavdasi aks ettiriladi. Portret ishlashda kompozitsiya bajarishning barcha muhim qonun-qoidalarini ham mukammal, atroflicha bilish talab etiladi.

Portret oddiy, murakkab keng ma'no tashuvchi, voqeani aks ettiruvchi bo'lishi bilan bir-biridan ajralib turadi. Respublikamizda ijod qilayotgan ko'plab rassomlar orasida portret ustalari ham bor. Ular qatorida A.Abdullayev, R.Ahmedov, N.Qo'ziboyev, V.Burmakin, B.Boboyev, R.Choriyev, A.Ikromjonov, M.Nuriddinov, S.Rahmetov va boshqa ko'plarni sanab o'tishimiz mumkin. Mamlakatimizning eng taniqli, mahoratli portretchi rassomi esa, albatta Abdulhaq Abdullaev deb e'tirof etsak o'rinli bo'ladi. Chunki bu musavvir o'zbek portretchiligi san'atiga ulkan muvaffaqiyatlar keltirgan insondir. Ma'lumki, M.Nabiev ham portret san'ati namunalari juda ko'p yaratgan rassomdir. Musavvirning «Amir Temur» portreti, «Bobur portreti», «Abu Rayhon Beruniy portreti» kabi asarlari ko'pchilikka ma'lum.

Akademik yo'nalishdagi portretni ishlashning o'z qonun-qoidalari bor. Ular o'quv-mashq ishi ekanligi, qat'iy me'zonlar doirasida, metodik izchillik asosida bajarilishini talab etadi. Ammo uning barcha talablariga muvofiq ish olib borish ancha murakkabdir. Buning uchun talaba ko'p mashq qilishi hamda nazariy bilimlar bilan qurollanishi kerak.

Portret mashq vazifa sifatida ishlanayotgan bo'lsada, unga alohida talabchanlik bilan yondoshish zarur. Chizilayotgan kishining qiyofasini o'xshatish eng muhim ishdur. Bu masalani ijobiy hal etish kompozitsiya, tasvirda rang xususiyatlari, o'ziga xos xususiyatli

shaxsga aloqador belgilarni topish va aks ettira bilish bilan bog‘liqdir. O‘quv-mashq uchun ko‘rinishi qiziqarli, yuz tuzilishlari ifodali, rangi ham chiroyli ko‘rinishga ega bo‘lgan kishi tanlanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Odatda portretning qo‘l tasviri bilan birga ishlanadigan turi (tors), butun gavda to‘liq aks ettiriladigan hamda xonadagi boshqa uy jihozlari bilan bog‘liq holda voqeabandlik kasb etuvchi kompozitsiyaviy turlari mavjud. Ular qanday sharoitda, qanday atrof-muhitda ishlanishi tasvir ma‘no-mohiyatini belgilaydi. Akademik portret albatta bosqichma-bosqich, barcha qo‘yilgan talablarga amal qilingan tarzda bajariladi. Uni ishlashdan avval qo‘yilma yaxshilab tahlil qilinadi. Ranglavha, kichik qalam chizgilari (eskiz) qilinadi. Ular yordamida bo‘lajak asosiy portret rangtasvirining tarhlari kompozitsiya qonuniyatlariga mos holda olib boriladi.

Ishni sifatli olib borishda rangtasvir texnologiyasiga to‘liq amal qilinsa, tasvir mazmundorligiga erishish oson kechadi. Shuni ham ta‘kidlash lozimki, portretga qo‘yiladigan eng asosiy talablardan biri uning tasvir etilayotgan shaxsga o‘xshashi kerakligi masalasidir. Bu jihatni amalga oshirishda aks ettirilayotgan shaxsning o‘ziga xos fe‘l-atvorini sezib, uni ifoda etish muhimdir. “Qiyofachining bu sifatlari uning bosh shakl tuzilishida, ko‘z, qosh, burun, og‘iz, yonoq, iyak, peshona, sochlardan sezilib turadi.”³⁶ Ularni shakllari va ranglarini tabiiy ko‘rinishiga yaqin qilib olish ancha sinchkovlikni talab etadi.

Portretga chizilayotgan kishi kayfiyati va ruhiy holatiga alohida ahamiyat berilishi kerak. Chunki bu jihatlar kompozitsiya mazmunining nechog‘li yechim topishida muhim rol o‘ynaydi. Ma‘lumki, qiyofachi qanday holatda (o‘tirgan yoki tik), qanday muhitda (xona ichida yoki tashqarida) tasvir etilayotganiga e‘tibor qaratish lozim. Chunki bu omillar rang yechimi va tasvirning umumiy ta‘sirchanligini belgilaydi.

Portret ishlashni o‘rganishning eng zarur sharti talabalarning uy vazifasi sifatida ko‘proq mashqlar bajarishi bilan belgilanadi. Iloji boricha qiyofachilarning yosh, ko‘rinish va jins jihatidan turlicha bo‘lishi, ular xona ichida, tashqarida, ochiq havo sharoitida turli tuman fonlar bilan ishlanishi zarur. Portretga chizilayotgan odamlarning kiyim-kechaklari, bosh kiyimlari, qo‘lidagi yoki yonidagi buyumlar ham ma‘lum darajada ahamiyatlidir. Ular kompozitsiyani boyitib, ish mazmuniga mazmun, voqeabandlik bag‘ishlashi mumkin.

Odam gavdasi va badanining rangtasvirini ishlash eng murakkab vazifalardan hisoblanadi. Chunki kiyim ichida turadigan, quyoshda qoraymagan odam terisi juda nozik rang tuslarida bo‘ladi. Uni tasvirlash, rang-tusini o‘xshatib ifodalash ancha qiyindir. Odam gavdasini har xil ko‘rinishlarini turli vaziyatlarda aks ettirish inson tanasi tuzilishi, anatomiyasi, o‘ziga xos shakl-shamoyilini o‘rganishni, plastik yechimini topishni taqozo etadi. Shu sababli avval qalamtasvir yordamida gavda konstruktiv tuzilishini chizib, o‘rganish lozim. Shundan so‘ng eng maqbul, chiroyli, ko‘zga yaxshi tashlanadigan joydan turib tasvirni matoga tushirish boshlanadi. Unda gavdaning sathda joylashishi kompozitsiya tomonlari puxta o‘ylab chiziladi. Rangda ishlaganda katta shakl va rang uyg‘unligiga e‘tibor berilishi, mutanosiblik barcha narsada aks etishi kerak. Ular esa gavdaning har bir bo‘lagi

³⁶ Bahrom Tojiev va Nasiba Isaxojievaning "Qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiya asoslari" Toshkent 2011, 64-bet.

rangi va soya-yorug‘likda namoyon etiladi. Ayniqsa gavdaning qorin va bel qismlari rang jihatidan juda murakkab, nozik tovlanishli tuslarga egaligi bilan ajralib turadi. Ularni «nyuans»³⁷lar yordamida ishlash mumkin. Bunda ham tus, ham rang o‘zgarishlarining salgina farqi ham hisobga olinadi. Odam tanasi agar kiyim bilan tasvirlanayotgan bo‘lsa, kiyim tana qismlari shakliga monand burmalar hosil qilib turishi hisobga olib ishlanadi. Aks holda uning tagidagi badan sezilmaydi va tana plastikasi buzulib ko‘rinadi. Buning uchun avvaldan matolarning qanday burmalanib turishi, natyurmortlar ishlash jarayonlarida ham yaxshi o‘zlashtirib olingani qo‘l keladi.

Gavda tasvirini bajarganda odamning bosh va yuz qismlari bo‘yin va boshqa a‘zolar bilan birgalikda, uzviylikda tasvirlanadi. Shu tomoniga alohida e‘tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki ularni plastik va qurilish jihatidan bog‘lab ifoda etish ancha murakkab bo‘lib, sa‘y-harakatlar talab qiladigan mashg‘ulotdir. Inson gavdasini rangtasvirini qay yo‘sinda, qanday ko‘rinishda ishlamang unda albatta qo‘l tasvirining o‘rni kattadir. Chunki qo‘l harakatlari, turish holati orqali gavda, inson tanasi vaziyatlari, harakatli holatlari yaqqol bo‘rtib ko‘rinadi. qo‘l yaxshi aks ettirilsa tasvir e‘tiborli va to‘kis ko‘rinish kasb etadi. Kiyimli portretida qo‘l tasviri hatto insonning «ikkinchi yuzi» deb ham atalishi bejiz emas. U orqali inson kayfiyati, uning ichki ruhiy kechinmalari ham bo‘rttirib ko‘rsatilishi mumkin. Shuning uchun qo‘lga ikkinchi portret sifatida qarab, xuddi inson yuzini qanday e‘tibor bilan ishlansa uni ham shunday diqqat bilan tasvirlamoq kerak.

Kompozitsiya - asar yoki tasviriy ishning tarx³⁸, rang yechimi, chizilayotgan narsalar satxda chiroyli, ma’noli qilib ishlash imkonini beradi.

O‘zbekistonda tasviriy san‘at yo‘nalishlari rassomlarning ijodiy namunalari yurtimizdagi va xorijdagi muzey, galereyalardan o‘rin olgan. Ular O‘zbekistonlik, xorijlik san‘at ixlosmandlari ko‘nglidan ham joy olgan. O‘zbekiston tasviriy san‘atida yorqin iz qoldirgan rassomlarimiz Chingiz Ahmarov, Ro‘zi Choriev, Rahim Ahmedov, O‘rol Tansiqboyev, Malik Nabiyeu, Javlon Umarbekov, Obid Bakirov va boshqa ko‘plab mo‘yqalam sohiblari shular jumlasidandir.

Ularning shogirdlari, izdoshlari bo‘lgan quyidagi rassomlar hozirgi kunda ham samarali ijod qilib kelmoqdalar. Hozirgi kunda abstraksiyanizm oqimida ijod qilayotgan va ijodi gurkirab, yashnab borayotgan rassomlardan biri Akmal Nur (Akmal Nuriddinov) 1959-yil Namanganda tug‘ilgan. 1984 yilda M.Uyg‘ur nomidagi Toshkent davlat san‘at institutini tamomlagan. 1990 yildan O‘zbekiston Badiiy Akademiyasining ijodiy birlashmasi a‘zosi. 2005 yilda O‘zbekiston xalq rassomi bo‘ldi. 2012 yildan O‘zbekiston Badiiy Akademiyasini boshqarib kelmoqda. Rassomning ijodiy ishlari O‘zbekiston davlat san‘at muzeyi, Badiiy Akademiyaning ko‘rgazmalar direksiyasi, Urganch davlat galereyasi va boshqa joylarda saqlanadi. Shuningdek, Yugoslaviya, AQSh, Hindiston, Shveysariyadagi

³⁷ **Nyuans** (fransuzcha *nuance* — "mayda farq", "tus", "ohang") — biror narsaning kichik, nozik tafovutlari yoki detallarini bildiradi. Bu so‘z ko‘pincha ma’nodagi, tovushdagi, rangdagi yoki biror vaziyatdagi nozik o‘zgarishlarni tavsiflash uchun ishlatiladi.

³⁸ **Tarx** – bu tasvirning umumiy kompozitsiyasini, ranglarning joylashuvi va ularning o‘zaro uyg‘unligini aniqlovchi dastlabki reja yoki eskizdir. Bu jarayon odatda rasm yoki grafik asar yaratilishidan oldin tayyorlanadi va uning asosiy vazifasi bo‘lajak ishning estetik va funksional jihatlarini belgilashdir.

muzey va galereyalarda, Gollandiya, Germaniya, Belgiya, Avstraliya, Isroil, Kanada, Turkiyaning xususiy kolleksiyalarida saqlanilmoqda. A.Nur ijodida muhabbat mavzusi etakchilik qiladi. “Ularning bog‘i doimo gullab yashnaydi”, “Injiq”, “Qush tili”, nomli ijodiy ishlari shular jumlasidandir. Akmal Nur ijodi rang-barangdir. Rassom ijodiy merosi bitmas tuganmas ma’lumot manbai: badiiy va xayoliy, qimmatli va ramziy. Afsonaviy qushlar obrazi, baliqlar, g‘ildirak, geometrik figuralar, ayol obrazi, tarozi, hayot daraxti, anor mevasi kabi timsollar Akmal Nur ijodiy muhitining asosini tashkil etadi. Rassomning ijodida asosan, tabiat va uyg‘unlik yetakchilik qiladi.

Hozirgi kunda ayol rassomlar orasida eng ilg‘or rassom Dilorom Mamedova 1974 yil Toshkent shahrida tavallud topgan. 1998 yildan O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi ijodkorlar uyushmasi a‘zosi. D.Mamedova zamonaviy ijodkor rassomlardan biri bo‘lib, uning ijodi asosan serquyosh O‘zbekistonning go‘zal tabiatiga bag‘ishlangan. Rassomning sevgan mavzusi vatanimizning boy madaniyati, uning chuqur o‘tmishiga tayangan an‘analari hisoblanadi. Uning realistik janrdagi ko‘pgina asarlarida milliy urf-odatlarimiz aks etgan ijodiy namunalarni ko‘rishimiz mumkin. Rassom boshqa yo‘nalishlarda avangard, abstraksiya, xolst³⁹ga ishlangan grafika va mozaika uslublarida ham ijod qiladi.

Dilorom Mamedova shahar, respublika va xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etib faxrli o‘rinlarni egallagan. 2013 yil rassom “Mustaqillik” kuniga bag‘ishlab o‘tkazilgan “Eng ulug‘, eng aziz” ko‘rik tanlovida 1-o‘rin, Xitoyda o‘tkazilgan “Biennale- 2013” da 1-o‘rin oldi va “Yilning eng yaxshi rassomi” diplomi bilan taqdirlandi. Bugungi kunda rassomning asarlari O‘zbekiston davlat san‘at muzeyida, Moskvadagi “Nikor” muzeyida va Germaniya, Shveysariya, Angliya, Yaponiya, Rossiya, Turkiya, Avstraliya, Xindiston, Xitoy, Isroil va AQShdagi shaxsiy kolleksiyalardan joy olgan.

Javlon Umarbekov O‘zbekiston xalq rassomi Javlon Umarbekov 1946 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan. 1961-1966 yillarda P.P.Benkov nomidagi respublika rassomlik bilim yurtida ta‘lim olgan. Ana shu talabalik yillarining o‘zidayoq Toshkent shahrida o‘tkazilgan ko‘rgazmada qatnashib (1965 y.) “Hosil” nomli asari bilan birinchi mukofotga sazovor bo‘lgan. J.Umarbekov "Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyning yoshligiga bag‘ishlangan, 1968 yilda yaratilgan asarida ikki do‘stning sharqona obrazini tasvirlaydi. Javlon Umarbekov o‘z ustozlari Chingiz Ahmarovdan nafaqat ta‘lim oladi, balki san‘atga sadoqat, ajdodlar merosiga hurmat va muhabbatni ham o‘rganadi. San‘atkor rang-barang kompozitsiyalar, portretlar, boy mazmunli manzara va natyurmortlarning muallifidir. Uning asarlarida tarixiy shaxslar qiyofasi kompozitsiyalar qamrovida gavdalanadi. Bu o‘rinda ayniqsa Al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur kabi tarixiy shaxslar obrazlarining to‘laqonli gavdalanishi diqqatga sazovordir. Javlon Umarbekovni «Sharq kuychisi», «O‘zbek Pikassosi» deb ham atashadi⁴⁰.

³⁹ **Xolst** (yoki inglizchada "canvas") — bu asosan rassomlar tomonidan rasm chizish uchun ishlatiladigan mato yoki qoplama materialidir. Xolst ko‘pincha paxta yoki kanvas tolalaridan tayyorlanadi va ustki yuzasi rasm chizish uchun mos ravishda tayyorlanadi, odatda akril, yog‘och yoki boshqa bo‘yoqlarning yaxshi yopishib qolishi uchun kerakli tuzilish va qattiqlikka ega bo‘ladi.

⁴⁰ B.A.Abdurasulova “Tasviriy san‘at fanini o‘qitish metodikasi” Andijon 2024, 123-b

“Ortiqali Qozoqov 1960 yilda Namangan viloyatida dunyoga kelgan. Atoqli ijodkor yuksak mukofot O‘zbekiston Badiiy Akademiyasining "Oltin medali" (1997 yil) hamda Vatan ravnaqi yo‘lida qo‘shgan hissasi uchun “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat arbobi” faxriy unvoni sohibidir. Rassomning shaxsiy ko‘rgazmlari nafaqat yurtimiz, balki Vashington (1991). Moskva (1994). Izmir (1995), Nagano (1999), Lyubek (1997) kabi qator shaharlarda namoyish qilingan. O. Qozoqovning asarlari Kipr. AQSh, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Belgiya, Turkiya, Yugoslaviya, Marokash, Kanada, Isroil, Niderlaniya, Janubiy Koreya va ko‘plab boshqa xorijiy davlatlar muzeylari, badiiy galereyalari va xususi to‘plamlardan o‘rin olgan.”⁴¹

Ortiqali Qozoqov kartinalari uchun eng muhim jihat bu kolorit, ya’ni ranglar mujassamligi. Darhaqiqat, rassomning qaysi bir asariga nazar solmang, turfa ranglar uyg‘unligiga guvoh bo‘lasiz. Barcha ranglar oq matoda go‘yo raqsga tushadi. Bir qarashda tartibsiz, mavhum bo‘lib tuyulgan qorishma va surtmalar zamirida mo‘yqalam sohibining asl ijodiy ideali yuz ko‘rsatadi. Mo‘yqalam sohibi hayoti davomida ularning mazmunini anglab yetishga harakat qiladi. Malum bir ranglarga oshuftalik rassom ruhiyatidagi ziddiyat va murakkabliklarni ham ifodalaydi. Ranglar bilan muloqot rassom uchun nihoyatda muhim. Ranglar ham inson tuyg‘ulariga o‘xshaydi. Ularni bo‘ysundirish, qolipga solish mushkul. Shamolni qafasga qamab bo‘lmaganidek, ranglar jilosini ham to‘shishning imkoni yo‘q.

Bahodir Jalolov Bahodir Jalolov 1948 yil Toshkentda tug‘ilgan. 1974 yil LE.Repin nomidagi Leningrad davlat rangtasvir, haykaltaroshlik va me‘morlik institutini tamomlagan. Yoshlik yillarida portret san‘atining ustasi Abdulhaq Abdullaevdan ta‘lim olgan. U O‘zbekiston Xalq rassomi, O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi haqiqiy a‘zosi, Qirg‘iziston Badiiy Akademiyasi haqiqiy a‘zosi, Rossiya Badiiy Akademiyasining faxriy a‘zosi, K.Bexzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti professoridir. 1991 y. A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati bo‘lgan. Uning ijodiga Sharq va G‘arb, akademizm va modernizm, reallik va fantaziya, intuisiya va echimning aniqligini taqqoslash, dastgohlilik va mahobatlilik, tekislilik va fazoviylik xos. Rassomning asarlari Toshkentdagi O‘zbekiston davlat san‘at muzeyi, O‘zbekiston Tasviriy san‘at galereyasi, Moskva davlat Tretyakov galereyasi, Rassomlar uyushmasi konfederasiyasining xalqaro Fondi, Zamonaviy san‘at muzeyi, Londondagi Bukingem saroyi va Britaniya muzeyida, shuningdek, ko‘plab chet el shaxsiy to‘plamlarida saqlanadi.

Bahodir Jalolov portret san‘atida ko‘p yutuqlarga erishdi. Uning to‘laqonli asarlarida o‘zbek xalqining sevimli farzandlari siymosi o‘z ifodasini topgan. Bu o‘rinda ayniqsa akademik rassom O‘rol Tansiqboev, buyuk olim, akademik Vohid Zohidov, san‘atning mashhur darg‘alari Komil Yormatov, Malik Qayumov, Muhiddin Rahimov, Hamro Rahimova, Akrom Toshkanboev, Damir Ro‘ziboev kabi ulug‘lar siymosi so‘zimizga misoldir.

Rahim Ahmedovich 1924-yil 26-iyul (boshqa ma‘lumotlarga ko‘ra – 28-iyul 1921-yil) Toshkentda, hunarmand oilasida tavallud topgan. 1932–1937-yillarda O‘zbekiston SSR

⁴¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Ortiqali_Qozoqov?utm_source=chatgpt.com

Maorif vazirligining Toshkent shahridagi bolalar uyida tarbiyalangan. Rahim 1937–1941-yillarda Toshkent rassomlik bilim yurtida (hozirgi P. Benkov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik bilim yurti) ustozlari A. N. Volkov, N. G. Qoraxon, B. Hamdamiylardan va 1947–1953-yillarda I. E. Repin nomidagi Leningrad rassomlik, haykaltaroshlik va arxitektura institutida Y. M. Neprintsev, V. M. Oreshnikov, I. A. Serebryaniylardan tahsil olgan. 1938-yildan ko‘rgazmalarda ishtirok etgan. Rassomning asarlari xorijiy ko‘rgazmalarda (Hindiston, Chexoslovakiya va boshqalar) namoyish etilgan va 1962-yilda Moskvada shaxsiy rasmlar ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tgan. Rahim Ahmedov 1941-yilda Qizil Armiya safiga chaqirilgan. Urush faxriysi bo‘lgan va Shimoliy Kavkaz frontida xizmat qilgan. Ahmedov 1953-yildan Toshkent teatr va rassomlik san‘ati institutida o‘qituvchi bo‘lib ishlagan. 1976-yildan professor O‘zbekiston Rassomlar uyushmasi boshqaruvi raisi Rahim SSSR Rassomlar uyushmasida boshqaruvi kotib lavozimida faoliyat olib borgan (1968). Uning asarlari chukur psixologik ifodaliligi bilan ajralib turadi, ularda ichki kechinmalar, his-tuyg‘ular mohirona ifodalangan. Ijodini asosan portretlar chizish bilan boshlagan Rassom ijodidagi “Ona o‘ylari”, “Keksa kolxozchi portreti”, “O‘zbek qizi portreti” kabi portretlar o‘zbek tasviriy san‘ati portret janrining rivojiga katta hissa qo‘shgan. Asarlari O‘zbekiston san‘at muzeyi, Badiiy ko‘rgazmalar direksiyasi, Sharq xalqlari san‘ati muzeyi va boshqalarda saqlanadi. Asarlari 1948-yildan respublika va xalqaro ko‘rgazmalarda namoyish etiladi.

Xulosa: Portret janrida rangtasvir va kompozitsiya masalalarini o‘rgatish talabalarda nafosat tarbiyasini shakllantirish, san‘atni chuqur tushunishga xizmat qiladi. Bu jarayon talabalardan nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarning uyg‘unlashuvini, inson qiyofasini murakkab jihatlarini puxta o‘rganishni talab etadi. Portret san‘ati orqali insonning nafaqat tashqi ko‘rinishi, balki ichki kechinmalari va ruhiy holati ham aks ettiriladi. Shu sababli talabalarning ijodiy yondashuvi, sinchkovligi va o‘zgacha tasavvur qobiliyatini rivojlantirish ushbu yo‘nalishdagi muvaffaqiyatlarning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.A.Abdurasulova. “Tasviriy san‘at fanini o‘qitish metodikasi” Andijon 2024,
2. B.Boymetov. “QALAMTASVIR”, “ILM -ZIYO” Toshkent 2007.
3. B.N.Oripov. “Tasviriy san‘at va uni o‘qitish metodikasi”, “ILM -ZIYO” Toshkent 2012.
4. Bahrom Tojiev va Nasiba Isaxojievaning "Qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiya asoslari" Toshkent 2011, 64-bet.
5. V. Burmakina. “San‘atning nazariy tamoyillari”, Moskva: Nauka, 2008.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ortiqali_Qozoqov?utm_source=chatgpt.com123-b